stilini ta'minlaydi, mahalliy fe'llar esa badiiy ekspressivlikni, bu o'zbek tilining arab-forstillari ta'siri ostidagi evolyutsiyasini ko'rsatadi

Munozara. Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarida fe'l sinonimiyasi asarning badiiy va tarixiy qiymatini oshiradi. Sinonimik qatlamlar matnning emotsional va ekspressivligini kuchaytiradi, xususan, o'zlashma fe'llar ("taraqqiy qilmoq", "tafakkur qilmoq") o'zbek tiliga moslashib, mahalliy fe'llar ("rivojlanmoq", "o'ylamoq") bilan sinonimik qator shakllantiradi (Dadaboyev, 2020; Qodirov, 2005). Yangi parchalar orqali ko'rinadiki, fe'llarning chastotasi kontekstga bog'liq: harbiy parchalarda "yetkurub" kabi harakat fe'llari (chastota yuqori), ruhiy parchalarda "tafakkur qilmoq" (emotsional yuklama). Etimologik chuqurlashtirish shuni ko'rsatadiki, asardagi fe'llarning aksariyati arab va fors tillaridan o'zlashgan bo'lib, bu Xiva xonligi davridagi madaniy ta'sirlarni ham aks ettiradi. Bu o'zlashuv jarayoni o'zbek tilining leksik boyishiga hissa qo'shgan, ammo ba'zi hollarda semantik farqlar saqlanib qolgan (masalan, rasmiy va badiiy kontekstlarda). Tadqiqot natijalari boshqa olimlarning qarashlari bilan mos keladi: masalan, Ne'matov (1969) fors-tojik o'zlashmalarining turkiy tillarda moslashuvini ta'kidlaydi, bu asarda "tahassur qilmoq" misolida ko'rinadi; Memetov (1975) turk tillarida fe'l sinonimiyasini umumlashtiradi. Biroq ba'zi farqlar bor, jumladan, stilistik yuklama kontekstga bog'liq bo'lib, harbiy parchalarda "taraqqiy tapmoq" ijobiy, ruhiy parchalarda "tafakkur qilmoq" esa salbiy yuklama beradi. Ushbu tadqiqotning cheklovi – faqat fe'llarga fokuslanganligi, kelajakda ism va sifat sinonimiyasi bilan solishtirish mumkin. Yangi parchalar va etimologik izohlar tadqiqotni boyitib, sinonimiyaning dinamik tabiatini ochib berdi.

Xulosa. "Zubdat ut-tavorix" asarida fe'l so'zlarining sinonimiyasi o'zbek adabiy tilining leksik boyligini, tarixiy va madaniy taraqqiyotini aks ettiradi. Fe'llarning sinonimik qatlamlari asarning badiiy ifoda vositalarini kengaytiradi va o'zbek tilshunosligi uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.Aniqlangan sinonimik qatorlar, chastota tahlili, yangi parchalar va etimologik chuqurlashtirish asarning badiiy ifoda vositalarini kengaytiradi va o'zbek tilshunosligi uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlar asarni boshqa adabiyot namunalari bilan solishtirishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. Toshkent, "Fan", 1992, 320-bet.

(2). Dadaboyev H. Ogahiyning tarixiy asarlari lug'at tarkibida o'zlashma so'zlarning o'rni. Golden Scripts. 2020, № 2, 45–52-betlar.

(3). Karimova F. XIX asr birinchi yarmi o'zbek adabiyotida muqaddima yozish an'analari. Theoretical & Applied Science. 2019, № 10 (78), 370–373-betlar.

(4). Ne'matov H. Fors-tojik o'zlashmalari turkiy tillarda. Toshkent, "Fan", 1969, 210-bet.

(5). Sultonov B. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar. Toshkent, "Fan", 1981, 180-bet.

(6). Memetov A. Turk tillarida fe'l sinonimiyasi. Toshkent, "Fan", 1975, 140-bet.

(7). Dadaboyev A. XI–XIV asr turkiy manbalar tilida forscha-tojikcha o'zlashmalar. "O'zbek tili va adabiyoti", 1980, 4-son, 143–148-betlar.

(8). Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. Asarlar. 10 jildlik, 7-jild, Toshkent, "Mumtoz so'z", 2010, 280-bet.

(9). Qodirov B. O'zbek tilida fe'l sinonimiyasi. Toshkent, "Fan", 2005, 200-bet.

(10). G'aniyeva N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 2004, 320-bet.

Shukurova Zilola Fazlidinovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti assistenti; e-mail: zilolashukurova618@gmail.com)

"TARIXI RASHIDIY" ASARIDA JONLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqola "Tarixi Rashidiy" asaridagi jonlantirish va ularning ingliz tilidagi tarjimasini o'rganishga bag'ishlanadi. Unda "Tarixi Rashidiy" asarining asliyat va tabdildagi jonlantirish mohiyati tahlil qilinadi. Asardagi ba'zi muhim ma'lumotlar asliyat, tabdil va ingliz tillarida qanday tarjima qilinganligi ko'rsatib beriladi. Asardagi jonlantirishning shu uch xil variantda qanday ma'no anglatishi ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *jonlantirish, asliyat, tabdil, ingliz tili tarjimasi,personifikatsiya inglizcha variant, mohir tarjimon.*

ПЕРСОНИФИКАЦИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ИСТОРИЯ РАШИДИ»

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности персонификации в произведении "История Рашиди" и их перевода на английский язык. В нем анализируется сущность персонификации произведения "История Рашиди" в оригинале и модифицированной версии. Некоторые важные сведения, содержащиеся в произведении, демонстрируют, как они были переведены на*

языки оригинала, транслитерации и английский язык. Раскрывается, что означает олицетворение в произведении в этих трёх вариантах.

Ключевые слова: *оживление, оригинал, адаптация, английский перевод, персонификация, английский вариант, опытный переводчик.*

PERSONIFICATION IN THE WORK "TARIKHI RASHIDI"

Annotation. *This article is dedicated to the study of the personification of "Tarikhi Rashidi" and its translation into English. It analyzes the essence of the personification of "Tarikhi Rashidi" in the original and adaptation. Some important information contained in the work demonstrates how it was translated into the original languages, transliteration, and English. The meaning of personification in the work in these three variants is revealed.*

Keywords: *personification, original, adaptation, English translation, personification, English version, skilled translator.*

Kirish. Jonlantirish (personifikatsiya) – bu badiiy san'atlardan biri bo'lib, jonli bo'lmagan narsalarga, mavhum tushunchalarga yoki hodisalarga insoniy xususiyatlar, insonga xos bo'lgan harakatlar berish sanaladi. Personifikatsiyani jonlantirish deb ham yuritilib, unda jonsiz narsalar, tabiat hodisalariga hamda abstrakt tushunchalarga insoniy xislatlar yoki harakatlar beriladi. Bu tarzdagi personifikatsiya misraga badiiy joziba bag'ishlab, uni obrazli va ta'sirchan qiladi. Masalan, "shamol g'azablandi","bozor uyg'ondi", "quyosh kulib qaradi" yoki "tong tabassum qildi" kabi iboralarda tabiat hodisalari insonga xos harakatlarda tasvirlanadi [1;84-b.]. Bu uslub adabiyotda obrazni yanada jonli qiladi. Ko'rsatilgan asosiy jihatlar shundaki, jonsiz narsalar yoki abstrakt tushunchalar insoniy harakatlar yoki sifatlar bilan tasvirlanadi. Bu uslub asardagi din, jang, fikr kabi mavhum tushunchalarning rivojlanishini yanada chuqurroq his qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. "Tarixi Rashidiy"ning asliyati va ikkala tarjimasini adib va tarjimonlar jonlantirish (personifikatsiya) orqali namoyon etishga urinishgan, sababi personifikatsiya maqsad, voqealarni yanada jonli, ta'sirchan, hissiy qiladi. Abstrakt tushunchalar va jonsiz narsalarga harakat va hayot bag'ishlaydi. Shoirning mahoratini va til boyligini namoyon etadi. Tarjimada esa personifikatsiyaning aynan ko'rinishi, ko'p hollarda, yo'qolishi yoki boshqacha ifodalanishi mumkin. "Tarixi Rashidiy" asari muallifi Mirzo Haydar bu badiiy san'atdan unumli foydalanib, asarini boyitganki, shu bois mazkur asar noyob asarlar sirasiga kirgan. Bu bilan asarning bo'yoqdorligini, kitobxonni o'ziga jalb qiluvchi jozibasini ta'minlagan.

Tahlil va natijalar. Asarning tadqiq jarayonida muallif jonlantirish badiiy san'atiga katta urg'u qaratgan. Ushbu badiiy san'at tabdilda ham, inglizcha tarjimada mohirona tarjima qilingan. "aql ular ustidan kuldi", "jang maydonidagi osmon qonli yosh oqizdi" kabi jonlantirish namunalari asarni usluban etuk manba sifatida ko'pgina qirralarini ochib bergan.Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asardagi jonlantirishning tarjimasi tarjimonning nafaqat til bilimiga, balki tarixiy-badiiy matnni idrok etish darajasiga, kontekstual tafakkuriga va madaniyatlararo tafovutlarni anglashiga ham bevosita bog'liq.

Keling, endi "Tarixi Rashidiy"dagi jonlantirish badiiy san'ati orqali ifodalangan jihatlarga to'xtalsak. Asarning asliyatidagi ushbu misrada jang tafsilotlari jonlantirish orqali ifoda etilgan.

Gar sipoh pindor yelidin kiyn o'tini yondurur

Obro'yin zaxm yegan qonga o'xshash oqturur. [2;79-b.]

Birinchi misrada "*sipoh pindor yelidin kiyn o'tini yondurur* " iborasi "harbiy fikr yoki harbiy g'oya shamolidek kelib, uning ta'sirida "o'tni, olovni yoqadi" degan ma'noni anglatadi. Bu misolda "o't" yong'in, janjal yoki ofat ma'nosida ishlatilgan. O't o'z-o'zidan yonmaydi, balki harbiy fikrning shamoli ta'sirida yonmoqda kabi ma'nolarni anglatgan . Shamol odatda tabiiy hodisa bo'lsa-da, bu gapda uning "fikr" ya'ni, harbiy g'oya bilan bog'lanishi insoniy xususiyatga o'xshaydi.

Ikkinchi misra: *"Obro'yin zaxm yegan qonga o'xshash oqturur",* ya'ni, obro' (shon-sharaf) yaralangan qonday oqadi. Bu ibora obro'ning yo'qolishi va shaxsning, ya'ni dushman jangchilarining sharmanda bo'lganini ifodalagan. Ayniqsa, "obro' yaralangan tanadan oqayotgan qonga o'xshab oqadi" degan tasvir inson sifatlantirishga yaqin, chunki obro' odatda oqadigan narsa emas. Shu sababli bu baytda metafora va tasviriy ifodalar hamda personifikasiya ham mavjud.

Ushbu baytning tabdildagi varianti mana bunday beriladi:

Lashkar g'urur yelida yoqsa urush olovin,

Yaradan oqqan qondek *qo'ldan berar yalovin.* [3;81-b.]

Birinchi misradagi "Lashkar g'urur yelida" iborasi lashkarning mag'rurlik shamoli ta'sirida harakat qilayotganini anglatadi.

"Yoqsa urush olovin", lashkar urush olovini yoqishi, ya'ni urushni boshlash yoki alangasini kuchaytirish kabi jihatlar nazarda tutilgan – insonga xos xususiyatlar jonlantirish orqali berilgan.

Ikkinchi misradagi "Yaradan oqqan qondek"– qonning yaradan oqishini urushning oqibatlariga ishora sifatida tushunish mumkin.

"Qo'ldan berar yalovin"– "yalov", bayroq yoki taslim bo'lish ishorasi ma'nosida kelgan. Urushning oqibatida taslim bo'lish yoki tinchlik so'rash tasvirlangan.

"Yaradan oqqan qondek qo'ldan berar yalovin" – bu yerda "yalov" – bayroq, taslim bo'lish ishorasi jonli narsaga o'xshatilgan holda, lashkar obro'yini "qo'ldan berish" bilan bog'langan. Bu esa personifikatsiyaning bir namunasini yaratadi. Bu baytda ta'sirchan tasvirlar mavjud va bu personifikasiya bilan ifoda etilgan.

Lashkar holdan toydi ko'p chekdi ozor,

O'lgan o'lib, qolgan bo'ldi yarador.

"Lashkar holdan toydi" – "lashkar" ya'ni, qo'shin inson xususiyati bilan tasvirlangan. Aslida, qo'shin charchamaydi, balki uning tarkibidagi askarlar charchaydi. Biroq shoir lashkarga insoniy sifat yuklab, uni holdan toygan, charchagan qilib tasvirlagan.

"Ko'p chekdi ozor" – bu ham personifikatsiyaning namunasidir. Lashkar o'zi azob chekishi mumkin emas, aslida bu askarlarga tegishli holat. Muallif "lashkar" tushunchasini go'yo bir inson kabi tasvirlab, unga azob chekish xususiyatini yuklagan. Demak, baytda personifikatsiya orqali lashkar "holdan toyishi" va "azob chekishi" orqali tirik mavjudot kabi tasvirlangan. Bu esa she'rga badiiy ta'sir kuchini oshirib, tasvirni jonliroq qiladi.

Gullar ochilib, sabzavu giyohlar unub, bog'u bo'stonlar tarovatlar paydo qildi [2;85-b.]. Asliyatning ushbu gapi asar tabdilida *"Bahor o'z sepini yoyganda"* [3;87-b.], deya ifodalangan. Bu gapning inglizcha tarjimasi esa "When spring *set in"* [4;32-b.] tarzida beriladi. Usbu gapda bahor faslining kirib kelishi jonlantirish bilan ifoda etilgan va gapga bo'yoqdorlik kasb etgan. Gapdagi bog'u bo'stonlar tarovatlar paydo qildi, ya'ni bog'lar ochilib-sochilib, o'zini ko'z-ko'z qildi ka'bi ma'no berilgan. Tabdilda esa ushbu gapni tarjimon Vahob Raxmonov yanada jozibali ifoda etgan, ya'ni *"Bahor o'z sepini yoydi"* kabi aniq jonlantirish badiiy san'atidan namuna keltirgan.

Yana bir she'riy misrani tahlil qilsak. *"Din quyoshi kamol ko'kiga yetdi"* [3;51-b.]. Ushbu misrada personifikatsiya mavjud, chunki dinning yuksalishi "quyoshning ko'kka chiqishi" bilan jonlantirilgan va insonga xos harakat bilan tasvirlangan. Bu iborada "Din quyoshi" – "din"– e'tiqod, islom "quyosh" so'zi bilan ramziy ifodalangan. Quyosh odatda yorug'lik, ravnaq va taraqqiyot bilan bog'lanadi, "kamol ko'kiga yetdi". Bu jumlada "kamol"– yuksalish, yetuklik va "ko'k" esa osmon, balandlik ma'nosida tasviriy ifodalangan. Barcha iboralar birgalikda "din"ni quyosh sifatida tasavvur qilib, uning yuksalishi osmon bilan bog'langan. Bu parchada personifikatsiya shundaki, "din quyoshi"ning "kamol ko'kiga yetishi" aynan inson harakatini, ya'ni yuksalishi, tom ma'noda balandlikka chiqishi sifatida tasvirlangan. Aslida, din yoki quyosh insondek harakat qilmaydi, lekin bu san'at orqali ular insoniy faoliyatga o'xshatib berilgan. Shu bilan birga, metafora ham mavjud: "din" quyoshga, "kamol" esa osmonning eng baland cho'qqisiga o'xshatilgan. Ingliz tilida esa asliyatning diniy yo'nalishdagi ayrim qismi tarjima qilinmagan [5;47-b.].

Asliyat va tarjima misollaridagi jonlantirish namunalariga kelsak,

Xayolimg'a bu ma'ni naqsh etibdur,

Ki dilbar naqshini surat sizibdur. [2;77-b.]

Asliyatdagi "ma'no naqsh etibdur" – ma'no inson kabi naqsh chizmoqda va dilbari, ya'ni yorining suratini chizmoqda kabi ma'nolarni anglatgan. Tarjimada ham shunga o'xshash: "Xayol musavvir, jonon timsolini tasvir ayladi". Ingliz tilida esa bunday jonlantirish ba'zida bo'lmaydi yoki boshqacha ifodalanadi.

Diniy personifikatsiya esa "Din topdi kamol" iborasi orqali din inson kabi o'sib, yetuklashayotgani ifodalanadi, bu orqali din jonli, rivojlanayotgan narsa sifatida ko'rsatiladi.

Jang bilan bog'liq personifikatsiya namunalari "O'tkir fikr lashkarni yengar" – fikr inson kabi jang qiladi, g'alaba qozonadi, "Qilichning tig'i otlarning bo'yni va boshini silay boshladi" – qilichga "silash" kabi insoniy harakat berilgan. "Qilich har qancha o'tkir bo'lsa ham, g'alaba oyatini tadbirdan o'rganadi", "qilich o'rganadi" kabi ifodalar bu insoniy xususiyatdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida, aytish joizki, "Tarixi Rashidiy"asarida jonlantirish badiiy tasviriy vositasi asar muallif Mirzo Haydar tomonidan juda keng va samarali qo'llanilgan. Bu uslub orqali shoir nafaqat tabiat, fikr, din, jang holatlarini jonli va insoniy xususiyatlarga ega sifatida tasvirlab, balki o'quvchi ongida kuchli obrazlar yaratgan. Shuning uchun ham asar bir necha asrlar oldin jahon adabiyotshunoslari, sharqshunoslari hamda mohir tarjimonlarini o'ziga jalb qilgan va bir necha tillarga tarjima qilin-

gan. Ba'zan tarjimada aynan shu jonlantirish yo'qolishi yoki o'zgartirilishu mumkin, lekin bunday holat adabiy asarning asl jozibasini kamaytirgani yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. "O'zbekiston", 1995, 84-bet.

(2). Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, tabdil, isohlar va ko'rsatkichlar muallifi t.f.n. O.Jalilov. T., "O'zbekiston", 2011, 79-bet.

(3). Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. Vahob Rahmonov va Yanglish Egamov tarjimasi. T., "Sharq", 2010, 81-bet.

(4). Sir E.Denison Ross. A history of Moghuls of Central Asia, New York, 2008.

(5). Erskine W. History of India under the two first sovereians the nous of Taimur, Babur and Humaiyn, w. I-II, London, 1854.

(5). Джалилов А. Список тюркских рукописей произведения Мирзо Мухаммада Дуглати «Тарихи Рашиди».

(6). Fozilova Sh, Sultanova D. Tarjima mutaxassisligiga kirish. Samarqand, 2007, 40-bet.

Холбутаева Феруза Бобировна (старший преподаватель Андижанского филиала Кокандского университета; xabibullaevaferuz@gmail.com)

КОГНИТИВНАЯ ГЕРМЕНЕВТИКА И СЕМАНТИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ ИРОНИИ: РУССКО-УЗБЕКСКИЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ КОНТИНУУМ

Аннотацияю *В статье представлено комплексное междисциплинарное исследование иронии как когнитивного механизма и лингвистической универсалии. На основе синтеза теории концептуальной интеграции, концепции эхоического упоминания и модели «семантической трапеции» автор анализирует способы порождения иронического смысла. Исследование опирается на сопоставление русской литературной традиции (Н.Тэффи) и узбекской прозы XX века (А.Каххар, Г.Гулям). Особое внимание уделяется нейрокогнитивным основаниям иронии и её специфической реализации в языках разного строя: через лексико-синтаксическую инверсию в русском и через морфологическую агглютинацию и подтекст (тагмаъно) в узбекском.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, семантическая трапеция, концептуальный блендинг, ирония, лингвокультурология, Н.Тэффи, Абдулла Каххар, агглютинация, эхоческое упоминание, прагматика.*

Xolbutayeva Feruza Bobirovna (Qo'qon universiteti Andijon filiali katta o'qituvchisi; xabibullaevaferuz@gmail.com)

KOGNITIV GERMENEVTIKA VA KINOYANING SEMANTIK TIPOLOGIYASI: RUS-O'ZBEK LINGVOKULTURAL KONTINUUMI

Annotatsiya. *Maqolada kinoyaning kognitiv mexanizm va til universaliyasi sifatidagi tabiati kompleks va fanlararo o'rganilgan. Muallif konseptual integratsiya nazariyasi, exolik eslatma (echoic mention) konsepsiyasi hamda «semantik trapetsiya» modeli sintezi asosida kinoyaviy ma'noning shakllanish usullarini tahlil qiladi. Tadqiqot rus adabiy an'anasi (N.Teffi) va XX asr o'zbek nasri (A.Qahhor, G'.G'ulom) qiyosiy tahliliga tayanadi. Kinoyaning neyrokognitiv asoslariga hamda uning turli qurilishga ega tillardagi o'ziga xos realizatsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan: rus tilida leksik-sintaktik inversiya, o'zbek tilida esa morfologik agglutinatsiya va ostmatn (tagma'no) orqali namoyon bo'lishi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, semantik trapetsiya, konseptual blending, kinoya, lingvokulturologiya, N.Teffi, Abdulla Qahhor, agglyutinatsiya, exolik eslatma, pragmatika.*

Kholbutayeva Feruza Bobirovna (Senior Lecturer Andijan Branch of Kokand University; xabibullaevaferuz@gmail.com)

COGNITIVE HERMENEUTICS AND SEMANTIC TYPOLOGY OF IRONY: RUSSIAN-UZBEK LINGUOCULTURAL CONTINUUM

Annotation. *The article presents a comprehensive interdisciplinary study of irony as a cognitive mechanism and a linguistic universal. Based on a synthesis of conceptual integration theory, the echoic mention framework, and the "semantic trapezium" model, the author analyzes the modes of generating ironic meaning. The research relies on a comparative study of the Russian literary tradition (N.Teffi) and Uzbek prose of the 20th century (A.Kahhar, G.Gulyam). Special attention is paid to the neurocognitive foundations of irony and its specific realization in languages of different structures: through lexico-syntactic inversion in Russian and through morphological agglutination and subtext (tagma'no) in Uzbek.*